Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

TIBBIY MULOQOTDA INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI NUTQIY AKTLARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Raxmatova Rayhona Raxim qizi
Ilmiy rahbar: **Yorova Sayyora Karimovna**
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.23016804

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiy muloqotda ingliz va o‘zbek tillarida qo‘llanadigan nutqiy aktlarning lingvopragmatik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, shifokor va bemor muloqotida nutqiy aktlarning kommunikativ maqsadi hamda ularning til vositalari orqali ifodalanishiga e’tibor qaratiladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi direktiv, assertiv va ekspressiv nutqiy aktlarning qo‘llanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, nutqiy aktlarning bevosita va bilvosita ifodalanishi, muloyimlik va kommunikativ vaziyat bilan bog‘liq jihatlari yoritiladi.
Kalit so‘zlar: tibbiy muloqot, nutqiy akt, lingvopragmatika, pragmatik ma’no, tibbiy diskurs, direktiv akt, assertiv akt, ekspressiv akt, shifokor-bemor muloqoti, ingliz tili, o‘zbek tili.

KIRISH

Bugungi tilshunoslikda til birliklarining faqat grammatik yoki semantik xususiyatlarini emas, balki ularning muloqot jarayonidagi vazifasini o‘rganishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, tibbiy muloqotda shifokor va bemor o‘rtasidagi nutqning maqsadi, vaziyati va ishtirokchilarning kommunikativ roli nutqiy birliklarning mazmuniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tibbiy nutqning tarkibiy jihatdan izchil, dialogik va aniq xarakterga ega ekanligi qayd etiladi[1]. Nutqning amaliy faoliyat sifatidagi xususiyatlarini tushuntirishda J. Austin tomonidan ilgari surilgan nutqiy aktlar nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Olim nutq jarayonida so‘zlash bilan birga muayyan harakat ham amalga oshirilishini ta’kidlab, lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarni ajratadi[2]. J. Searle esa ushbu nazariyani rivojlantirib, nutqiy aktlarni assertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv turlarga tasniflaydi. Mazkur tasnif tibbiy muloqotdagi savol berish, maslahat berish, tavsiya qilish, ogohlantirish, tushuntirish kabi nutqiy harakatlarni tahlil qilish uchun nazariy asos bo‘la oladi[3].

Tibbiy muloqotda nutqiy aktlar shunchaki axborot yetkazish vositasi bo‘lib qolmay, tashxis qo‘yish, davolash jarayonini tushuntirish, bemorni muayyan harakatga undash va unga psixologik ta’sir ko‘rsatish kabi vazifalarni ham bajaradi. Shifokor va bemor muloqotida strategik hamda taktik vositalarning tashxis, davolash va tibbiy tavsiyalar bilan bog‘liqligi ham ta’kidlangan. Shu sababli bir xil kommunikativ maqsad turli tillarda turlicha lisoniy vositalar orqali ifodalanishi mumkin. Shundan kelib chiqib, ingliz va o‘zbek tillaridagi tibbiy muloqotda qo‘llanadigan nutqiy aktlarning lingvopragmatik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tahlil nutqiy aktlarning kommunikativ maqsadi, ifodalanish shakli va muloqot ishtirokchilariga ta’sirini aniqlash, shuningdek, ikki til o‘rtasidagi pragmatik va milliy-madaniy farqlarni ochib berish imkonini beradi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillaridagi tibbiy muloqotda qo‘llanadigan nutqiy aktlarning lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash uchun qiyosiy va lingvopragmatik yondashuvlardan foydalanildi. Tahlil J. Austin va J. Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasiga tayangan

[1] Yorova S. K. Ingliz va o‘zbek tibbiy nutqining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari: falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand, 2023.

[2] Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 166 p.

[3] Searle J. R. A Classification of Illocutionary Acts // Language in Society. – 1976. – Vol. 5, No. 1. – P. 1-23.

holda olib borildi. Nutqiy aktlarning kommunikativ maqsadi, mazmuni va muayyan nutqiy vaziyatda bajaradigan funksiyasiga asosiy e'tibor qaratildi. Tadqiqot davomida tibbiy muloqotga xos bo'lgan savol berish, axborot yetkazish, maslahat berish, tavsiya qilish, ogohlantirish, tushuntirish va undash kabi nutqiy harakatlar ajratib olindi. Ularning qaysi kommunikativ maqsadni ifodalashi, shifokor va bemor o'rtasidagi munosabatda qanday vazifani bajarishi hamda nutqiy vaziyatga qarab qanday shaklda namoyon bo'lishi tahlil qilindi. Bunda nutqiy aktning faqat grammatik shakliga emas, balki uning kontekstda yuzaga keladigan pragmatik mazmuniga ham e'tibor qaratildi[4].

Qiyosiy tahlil orqali ingliz va o'zbek tillarida o'xshash kommunikativ vazifalarning qanday til birliklari yordamida ifodalanishi o'rganildi. Shuningdek, murojaat shakllari, modal birliklar, buyruq va iltimos konstruksiyalari, savol shakllari hamda baholovchi birliklarning pragmatik imkoniyatlari hisobga olindi. Nutqiy aktlarning qo'llanishida shifokor va bemorning muloqot maqsadi va vaziyatning xususiyatlari ham tahlil mezoni sifatida belgilandi. Shu asosda ingliz va o'zbek tillaridagi tibbiy muloqotda nutqiy aktlarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash, ularning milliy-madaniy hamda kommunikativ xususiyatlarini yoritish ko'zda tutildi. Mazkur metodologik yondashuv keyingi bosqichda nutqiy aktlarning aniq misollar asosida lingvopragmatik tahlilini amalga oshirish imkonini beradi.

NATIJALAR

Tibbiy muloqotda eng faol qo'llanadigan nutqiy aktlardan biri direktiv aktlar bo'lib, ular suhbatdoshni muayyan harakatni bajarishga undashga xizmat qiladi. Shifokor va bemor o'rtasidagi muloqotda bunday aktlar maslahat, tavsiya, iltimos, ko'rsatma va ogohlantirish shakllarida namoyon bo'ladi. Ingliz tilidagi tibbiy muloqotda direktiv mazmun ko'pincha modal birliklar, so'roq konstruksiyalari va bilvosita ifoda shakllari orqali beriladi. Masalan, "You should take this medicine twice a day" jumlasida should modal birligi bemorga tavsiya berish ma'nosini ifodalasa, "Could you take a deep breath, please?" shakli grammatik jihatdan so'roq gap bo'lsa-da, pragmatik jihatdan bemorni muayyan harakatni bajarishga undovchi direktiv akt hisoblanadi. O'zbek tilidagi tibbiy muloqotda esa "Bu dorini kuniga ikki mahal iching", "Chuqur nafas oling", "Ko'proq suyuqlik ichishingiz kerak" kabi shakllarda tavsiya va ko'rsatmalar nisbatan bevosita ifodalanadi. Shu bilan birga, "...ichsangiz yaxshi bo'ladi", "...qilsangiz ma'qul", "iltimos, ..." kabi konstruksiyalar orqali direktiv mazmun yumshatilishi ham mumkin. Demak, ikki tilda direktiv nutqiy aktlarning kommunikativ maqsadi umumiy bo'lsa-da, ularning ifodalanishida bevositalik darajasi, modal vositalar va murojaat shakllaridan foydalanish jihatidan farqlar kuzatiladi. Bu holat shifokor va bemor o'rtasidagi ijtimoiy munosabat, muloqotning qay darajada rasmiy yoki norasmiy ekanligi hamda kommunikativ vaziyat bilan uzviy bog'liqdir.

Tibbiy muloqotda assertiv nutqiy aktlar ham muhim o'rin egallaydi. Ular orqali shifokor bemorning sog'lig'i, kasallik belgilari, tashxis, tahlil natijalari yoki davolash jarayoni haqida ma'lumot beradi va muayyan fikrni bayon qiladi. Ingliz tilidagi "Your blood pressure is slightly high", "The test results show an infection" kabi jumlalarda shifokor mavjud tibbiy holatni xolis tarzda ifodalaydi. O'zbek tilida esa "Qon bosimingiz biroz yuqori", "Tahlil natijalarida infeksiya belgilari ko'rinmoqda" kabi shakllar shu kommunikativ vazifani bajaradi. Bunday aktlarda asosiy maqsad bemorga muayyan axborotni yetkazish bo'lsa-da, ularning pragmatik ta'siri ham mavjud: shifokorning aniq va ishonchli bayoni bemorning kasallik haqidagi tasavvurini shakllantiradi va keyingi davolash jarayoniga munosabatiga ta'sir ko'rsatadi. Ingliz va o'zbek tillarida assertiv aktlarning umumiy funksiyasi bir xil bo'lsa-da, axborotni yumshatish yoki qat'iy ifodalash darajasida ayrim farqlar kuzatiladi. Masalan, ingliz tilida "It seems that..." yoki "You may have..." kabi ehtiyotkor ifoda shakllari tibbiy xulosani kategorik tarzda emas, taxminiy shaklda yetkazishga xizmat qilishi mumkin. O'zbek tilida esa "...bo'lishi mumkin", "...ga o'xshaydi", "ehtimol" kabi birliklar xuddi shunday pragmatik vazifani

[4] Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p.

bajaradi. Bu vositalar shifokorning aniq bo‘lmagan holatlarda ehtiyotkorlik bilan fikr bildirishini ta’minlaydi va bu orqali bemorni shoshirib xavotirga qo‘yishdan cheklanadi.

Ekspressiv nutqiy aktlar tibbiy muloqotning insoniy va emotsional tomonini namoyon etuvchi vositalardan biridir. Ular orqali shifokor bemorning holatiga nisbatan hamdardlik, qo‘llab-quvvatlash, dalda yoki achinish kabi munosabatlarni ifodalashi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “I understand how difficult this is for you” yoki “I’m sorry you’re going through this” kabi ifodalar bemorning ruhiy holatini hisobga olgan holda muloqotni yumshatishga xizmat qiladi. O‘zbek tilida “Sizni tushunaman”, “Bu holat siz uchun qiyinligini tushunaman”, “Xavotir olmang, hammasini birgalikda nazorat qilamiz” kabi birliklar shu kabi kommunikativ vazifani bajaradi. Ayniqsa, kasallikning og‘irligi, noxush tashxis yoki uzoq davom etadigan davolash jarayoni haqida suhbatlarda bunday nutqiy aktlarning ahamiyati ortadi. Demak, tibbiy muloqotda nutq faqat axborot berish yoki bemorni muayyan harakatga undash bilan cheklanmaydi, balki bemorning psixologik holatini hisobga olish va shifokor-bemor o‘rtasidagi ishonchni, hamdardlik hissini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ingliz va o‘zbek tillarida ekspressiv aktlarning mazmuni o‘xshash bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish holatlari, murojaat shakli va emotsional ifoda darajasi muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq holda farqlanishi mumkin.

Umuman olganda, tahlil natijalari tibbiy muloqotda nutqiy aktlarning bir-biridan qat’iy ajralgan holda emas, balki ko‘pincha bir kommunikativ vaziyat doirasida o‘zaro bog‘liq tarzda qo‘llanishini ko‘rsatadi. Masalan, shifokor avval bemorning holati haqida assertiv akt orqali ma’lumot berib, keyin direktiv akt yordamida muayyan tavsiya berishi, ekspressiv akt orqali esa bemorni ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Shu jihatdan tibbiy muloqotdagi nutqiy aktlarning pragmatik qiymati ularning alohida shaklidan ko‘ra, kommunikativ vaziyatdagi vazifasi bilan belgilanadi. Ingliz va o‘zbek tillarini qiyoslash esa umumiy kommunikativ maqsadlar mavjud bo‘lsa-da, ularni ifodalashda modal birliklar, murojaat shakllari, bilvositalik va emotsional ifoda vositalaridan foydalanish darajasida farqlar mavjudligini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Darhaqiqat, tibbiy muloqotda nutqiy aktlarning shakli va mazmuni o‘rtasidagi munosabat har doim ham bir xil bo‘lmaydi. Bir qarashda oddiy darak yoki so‘roq gap sifatida ko‘rinadigan birlik muayyan vaziyatda tavsiya, iltimos, ogohlantirish yoki undash vazifasini bajarishi mumkin. Masalan, shifokorning “Could you take a deep breath, please?” shaklidagi gapi grammatik jihatdan so‘roq gap bo‘lsa-da, uning asosiy kommunikativ maqsadi bemordan ma’lum harakatni bajarishni so‘rashdan iborat. O‘zbek tilidagi “Chuqur nafas oling, iltimos” shaklida esa shu maqsad bevosita ifodalanadi. Demak, nutqiy aktning pragmatik mazmunini aniqlashda gapning grammatik shakli bilan cheklanib qolmasdan, uning kommunikativ vaziyatdagi maqsadi va suhbatdoshga ta’sirini ham hisobga olish zarur. Bu jihat J.Austin va J.Searle tomonidan ilgari surilgan nutqiy aktlar nazariyasining tibbiy muloqot materiallarini tahlil qilishdagi amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Qiyosiy tahlil natijalarida ingliz va o‘zbek tillarida tibbiy muloqotning asosiy kommunikativ maqsadlari o‘xshash ekanligi, farq esa ko‘proq ushbu maqsadlarning lisoniy ifodalanishida namoyon bo‘lishi kuzatildi. Ingliz tilida should, could, may kabi modal birliklar hamda bilvosita konstruksiyalar tavsiya, ehtimoliylik va iltimos mazmunini yumshatishda faol qo‘llanadi. O‘zbek tilida ham “...qilsangiz yaxshi bo‘ladi”, “...qilishingiz kerak”, “...bo‘lishi mumkin” kabi shakllar xuddi shunday pragmatik vazifalarni bajaradi. Masalan, “You may have an infection” va “Sizda infeksiya bo‘lishi mumkin” jumlalarida ehtimoliylik mazmuni turli lisoniy vositalar orqali ifodalangan bo‘lsa-da, ikkala holatda ham shifokorning hali to‘liq tasdiqlanmagan ma’lumotni ehtiyotkorlik bilan yetkazish maqsadi mavjud. Shu jihatdan, tillar o‘rtasidagi farqlarni faqat grammatik tafovut sifatida emas, balki muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy mavqei, hurmat va muloyimlikni ifodalash usullari bilan bog‘liq pragmatik

hodisa sifatida baholash mumkin. S.K.Yorovaning tadqiqotida ham tibbiy muloqotning pragmatik xususiyatlari kommunikativ vaziyat va shifokor-bemor munosabati bilan bog‘liq holda yoritilgan[5].

Tahlil natijalarini umumlashtirganda, tibbiy muloqotda turli nutqiy aktlar ko‘pincha bir-biridan mustaqil emas, balki yagona kommunikativ maqsad doirasida o‘zaro bog‘langan holda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Shifokor bemorning holati haqida ma’lumot berishi, shu ma’lumot asosida muayyan tavsiya berishi va ayni vaqtda bemorni ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Bunday ketma-ketlik tibbiy muloqotning strategik xususiyatini ko‘rsatadi. Shuning uchun nutqiy aktlarni faqat alohida gap shakllari sifatida o‘rganish tibbiy muloqotning to‘liq pragmatik mazmunini ochib berolmaydi. Ularni kommunikativ vaziyat, shifokor va bemorning roli, muloqot maqsadi hamda milliy-madaniy omillar bilan birgalikda tahlil qilish ingliz va o‘zbek tillaridagi tibbiy muloqotning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqroq ko‘rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, nutqiy aktlar shifokor va bemor o‘rtasidagi kommunikativ maqsadni amalga oshirishda muhim vositadir. Ular orqali axborot berish, tavsiya qilish, muayyan harakatga undash va bemorni ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalar bajariladi. Shu bois nutqiy birliklarning mazmunini belgilashda ularning grammatik shakli bilan bir qatorda, nutqiy vaziyat va kommunikativ maqsad ham hisobga olinishi lozim. Ingliz va o‘zbek tillarida mazkur maqsadlar umumiy bo‘lsa-da, ularning ifodalanishida bilvositalik, modal vositalar, murojaat shakllari va muloyimlik darajasiga oid farqlar kuzatiladi. Bu tafovutlar tilning pragmatik imkoniyatlari bilan bir qatorda, muloqotning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini ham aks ettiradi. Natijada nutqiy aktlarni qiyosiy o‘rganish ikki tildagi kommunikativ jarayonning o‘ziga xos jihatlarini yaxshiroq anglash imkonini beradi. Shunday qilib, tibbiy muloqotda nutqiy aktlarning samarali qo‘llanishi nafaqat to‘g‘ri axborot yetkazish, balki shifokor va bemor o‘rtasidagi o‘zaro tushunish va ishonchni ta’minlash bilan ham bog‘liq. Olingan xulosalar kelgusida tibbiy kommunikatsiyaning pragmatik va milliy-madaniy jihatlarini yanada chuqurroq tadqiq etish uchun asos bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 166 p.
2. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
3. Searle J. R. A Classification of Illocutionary Acts // Language in Society. – 1976. – Vol. 5, No. 1. – P. 1-23.
4. Brown P., Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
5. Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p.
6. Yorova S. K. Ingliz va o‘zbek tibbiy nutqining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari: falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand, 2023.

[5] Yorova S. K. Ingliz va o‘zbek tibbiy nutqining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari: falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand, 2023.